



VOYAGA YETMAGANLARGA IJTIMOIIY-HUQUQIY YORDAM KO'RSATISH MARKAZLARI

Gadoymirodov Bekzod Obidjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Ravshanov Rustamjon Odil o'g'li

3-o'quv kursi kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan 2021-yil 3-avgustdagi 490-son Vazirlar Mahkamasi qarori mazmuni yoritilgan. Shuningdek, Markazlarning vazifalari va ularning voyaga yetmaganlar bilan ishlashdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Xorijiy tajribadan Fransiya, Germaniya va Yaponiya misolida bolalarni himoya qilish va reabilitatsiya qilishning samarali usullari tahlil etilgan. Maqolada milliy va xalqaro tajribalar taqqoslanib, tizimni yanada takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-huquqiy yordam, voyaga yetmaganlar, xalqaro tajriba, o'zining ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi

Abstract: This article highlights the content of Cabinet of Ministers Resolution No. 490 of August 3, 2021, aimed at improving the system of social and legal assistance to minors in Uzbekistan. The tasks of the Centers and their significance in working with minors are also indicated. From foreign experience, effective methods of protection and rehabilitation of children are analyzed using the example of France, Germany, and Japan. The article compares national and international experience and emphasizes the need for further improvement of the system.

Keywords: Socio-legal assistance, minors, international experience, its own specialized educational institution.

Bugungi kunda aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etayotgan davlatlar, voyaga yetmaganlar va yoshlarni qo'llab quvvatlash hamda ularni turli yodg'oyalardan himoya qilish borasida qonunchilik va o'z dasturlariga ega.

Yoshlar davlati sifatida bugungi kunda yurtimizda ham voyaga yetmaganlar va yoshlarni qo'llab quvvatlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Ayniqsa, ota-ona yoki ota-ona o'rini bosuvchi shaxslar nazoratisiz va qarovisiz qolgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan, davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha faoliyatni samarali tashkil etish borasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 3-avgust kuni "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam

ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 490-son qarorini qabul qildi.

Ushbu qarorga asosan, Markazlar ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini hamda voyaga yetmaganlarni qabul qilish, vaqtincha saqlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmasi hisoblanadi.

Markazlarga voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar ta'lim muassasalarida, profilaktika inspektorlari xizmat hududida, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari oilalarda o'rganish (kuzatish) va profilaktik tadbirlarni amalga oshirish jarayonida, ota-ona yoki ota-ona o'mini bosuvchi shaxslar nazoratisiz va qarovsiz qolgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan, davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlab, ularni joylashtirish choralari ko'radi.

Qarorga asosan 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan quyidagi voyaga yetmaganlar kecha-kunduz qabul qilinadi:

- ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar nazoratisiz va qarovsiz qolgan;
- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalarda yashayotgan hamda davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan;
- ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarini, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim muassasalarini yoxud boshqa bolalar muassasalarini o'zboshimchalik bilan tark etganlar;
- ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan qonunchilik hujjatlarida belgilangan yoshda bo'lganlar;
- ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy holatining buzilganligi bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetishga qodir bo'lmaganlar, agar voyaga yetmaganlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash yoki ular tomonidan takroran ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish zarur bo'lsa, shuningdek, voyaga yetmaganlarning shaxsi aniqlanmagan yoxud uning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlari ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;
- ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan huquqbuzarliklarni sodir etganlar, agar ularning shaxsi aniqlanmagan bo'lsa yoxud ularning aniq yashash joyi bo'lmasa yoki o'zlari huquqbuzarliklar sodir etgan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashamayotgan bo'lsa;
- o'zining ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirilishi to'g'risidagi masalaning sud tomonidan ko'rib chiqilishini vaqtincha kutib turganlar;
- sudning ajrimiga ko'ra ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga yuborilayotganlar.



Markazga qabul qilingan voyaga yetmaganlarga tibbiy, huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatiladi.

Markazning asosiy vazifalari:

- qabul qilingan voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning yoshiga xos bo'lgan psixofiziologik xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;
- voyaga yetmaganlarga tibbiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning hayoti va sog'lig'ini saqlash;
- ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish;
- voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish.

Bugungi kunda Markazlarda voyaga yetmaganlarni qabul qilish, ularni saqlash muddatlari va qabul qilinadigan toifalarni qayta zamon talabiga mos ravishda ko'rib chiqishlikni talab etilmoqda.

Xorijiy davlatlarda, jumladan Fransiyada voyaga yetmaganlar uchun "Aide Sociale à l'Enfance (ASE)" bolalarni ijtimoiy himoya qilish xizmati faoliyat yuritib, bolalarni zo'ravonlikdan, beqaror oila muhitidan himoya qiladi, vaqtincha yashash joyi va ta'lim bilan ta'minlaydi.

Germaniyada esa, har bir voyaga yetmagan shaxs bilan ishlashda "Jugendamt" yoshlar xizmati faol ishtirok etadi. Bu xizmat bolaga psixologik yordam, ta'lim, mehnatga o'rgatish va jamoaga qayta moslashuv bo'yicha yordam ko'rsatadi.

Yaponiya tajribasida bolalarni jazolash emas, balki "ta'lim va ijtimoiy qayta tarbiya"ga yo'naltirish asosiy g'oya sifatida qabul qilingan bo'lib, sud ishi oldidan "Family Court investigation" oila muhitini o'rganish amalga oshiriladi va psixolog, pedagog va mahalliy hokimiyat vakillari ishtirokida bolaga individual rehabilitatsiya dasturi tuziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi 2010-yil 29-sentyabr kunidagi "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ 263-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 3-avgust kuni "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 490-son qarori;



3. Gadoymirodov B. Administrative responsibility for minors: historical development and international legal documents //Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – T. 1. – №. 3. – S. 210-212.